

Tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonlikni

BAHOLASH MEZONI

TIKANBALIQNING XATTI-HARAKATLARI.

№ 1 SAVOLNI BAHOLASH

Agar o‘quvchilar o‘z javoblarida “Qaysi rang erkak tikanbaliqning eng ko‘p tajovuzkor xatti-harakatiga sabab bo‘ladi?” degan savolni qayd etishsa, javob to‘liq qabul qilinadi (1 ball).

To‘g‘ri javoblar quyidagicha bo‘lishi mumkin:

Erkak tikanbaliq kumush rangli baliqqa nisbatan qizil rangli baliqqa yanada tajovuzkorroq munosabatda bo‘ladimi?

Tajovuzkor xatti-harakat va rang o‘rtasida bog‘liqlik bormi?

Baliqlarning rangi erkak tikanbaliqning tajovuzkor xatti-harakatlariga sabab bo‘ladimi?

Baliqning qaysi rangi erkak tikanbaliqning eng ko‘p tajovuzkor xatti-harakatiga sabab bo‘ladi?

Javob yo‘q yoki model/baliqning rangi bilan bog‘liq bo‘lmagan barcha javoblar qabul qilinmaydi (0 ball).

Qaysi rang erkak tikanbaliqning tajovuzkor xatti-harakatiga sabab bo‘ladi? *[Eslatma: qiyosiy jihatdan yondashilmagan];*

Urg‘ochi tikanbaliqning rangi erkak tikanbaliqning tajovuzkor xatti-harakatiga sabab bo‘ladimi? *[Eslatma: birinchi tajriba baliqning jinsini aniqlash bilan bog‘liq emas];*

Erkak tikanbaliq qaysi modelga eng tajovuzkor munosabatda bo‘ladi? *[Eslatma:baliq/modelning rangi haqida gapirilmagan].*

Mazkur savol o‘quvchilarning ilmiy tadqiqotlarni loyihalash va baholash kompetensiyasini baholashga qaratilgan.

TIKANBALIQNING XATTI-HARAKATLARI. № 2 SAVOLNI BAHOLASH

O‘quvchilar ushbu topshiriqni bajarishlari uchun grafikdagi ma’lumotlarni tahlil va talqin qilishlari kerak: erkak tikanbaliq qizil rangli baliqqa biror marta ham g‘amxo‘rlik ko‘rsatmagan, yassi qorinli kumushrang baliqqa nisbatan yumaloq qorinli kumushrang baliqqa ko‘proq g‘amxo‘rlik ko‘rsatgan.

Agar o‘quvchilar quyidagi ketma-ketlikda barcha uchta to‘g‘ri javobni belgilashsa, javob to‘liq qabul qilinadi (1 ball): Yo‘q, Yo‘q, Ha. Javob yo‘q yoki boshqa javoblar bo‘lsa, qabul qilinmaydi (0 ball).

Mazkur savol o‘quvchilarning ma’lumotlar va dalillarni ilmiy talqin qilish kompetensiyasini baholashga qaratilgan.

TIKANBALIQNING XATTI-HARAKATLARI. № 3 SAVOLNI BAHOLASH

O‘quvchilar ushbu topshiriqni bajarishlari uchun matnni o‘qib tushunishlari hamda rasm va grafikdagi ma’lumotlarni tahlil, talqin qilishlari, xulosa chiqara olishlari kerak.

Agar o‘quvchilar quyidagi ketma-ketlikda to‘rtta to‘g‘ri javobni belgilashsa, javob to‘liq qabul qilinadi (1 ball): C, A, C, B. Javob yo‘q yoki boshqa javoblar bo‘lsa, qabul qilinmaydi (0 ball).

Mazkur savol o‘quvchilarning ma’lumotlar va dalillarni ilmiy talqin qilish kompetensiyasini baholashga qaratilgan.

METEOROIDLAR VA KRATERLAR. № 1 SAVOLNI BAHOLASH

Mazkur topshiriqni bajarish ucun o‘quvchilar fanning mazmuniga oid tegishli bilimlarni yodga olishlari, jumladan, nima uchun jismlar Yerga yaqinlashayotganda tezlik oshishini anglashlari kerak.

To‘g‘ri javob: “C Meteoroid Yer massasi hisobiga tortiladi”.

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning hodisalarni ilmiy jihatdan tushuntirish kompetensiyasini baholashga qaratilgan.

METEOROIDLAR VA KRATERLAR.
№ 2 SAVOLNI BAHOLASH

Mazkur topshiriqni bajarish uchun o‘quvchilar planeta atmosferasining qalinligi, meteoroidlarning atmosferada yonib ketishi va planetaning yuzasida paydo bo‘ladigan kraterlar soni o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushuntirib berishda ikkita tanlovni amalga oshirishlari kerak.

To‘g‘ri javob: “Kamroq kraterlar va ko‘proq meteoroidlar”.

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning hodisalarni ilmiy jihatdan tushuntirish kompetensiyasini baholashga qaratilgan.

METEOROIDLAR VA KRATERLAR.
№ 3 SAVOLNI BAHOLASH

Mazkur savol PISA 2015 tadqiqotining tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonlik yo‘nalishining eng oson savoli bo‘lib, ma’lumotni talqin qilishga asoslangan. Bunda katta ob’yekt yirik kraterni, kichigi esa kichik kraterni hosil qilishini bilish talab etiladi.

To‘g‘ri javob: A, C, B.

Mazkur savol o‘quvchilarning hodisalarni ilmiy jihatdan tushuntirish kompetensiyasini baholashga qaratilgan.

3.2-savol

O‘quvchilar mazkur savolga javob berishda kraterlar qachon paydo bo‘lganligini aniqlashlari uchun rasmda tasvirlangan uchta kraterni solishtirishlari kerak: eng avval C krater hosil bo‘lgan, chunki A krater C kraterni biroz to‘sib qo‘ygan. Eng oxirgi B krater hosil bo‘lgan, chunki u A kraterning ichida joylashgan.

To‘g‘ri javob: C, A, B.

Mazkur savol o‘quvchilarning ma’lumotlar va dalillarni ilmiy talqin qilish kompetensiyasini baholashga qaratilgan.